

**O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI
BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZNING 2-
BOSQICH TAYANCH DOKTORANTI**

Nafosat Egamberdiyeva

Annotatsiya: *maqolada gilamdo‘zlik san’atining shakllanishi, to‘qilish va bezash usullari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *gilam, gilamdo‘zlik, jun, ipak, taqir gilam.*

Аннотация: *статья содержит сведения о становлении искусства ковроткачества, способах ткачества и декорирования, его характеристике.*

Ключевые слова: *ковер, ковроделе, шерсть, шелк, “такир” ковер.*

Abstract: *the article contains information about the formation of the art of carpet weaving, methods of weaving and decoration, and its characteristics.*

Key words: *carpet, carpet making, wool, silk, bare (taqir) carpet.*

Jahon tarixida hunarmandchilik mavzusi tarixiy, madaniy merosni saqlash hamda uni targ‘ib qilishda O‘zbekiston tarixining asosiy ob’ekti sifatida turli yondashuvlar hamda fandar kesimida o‘rganilmoqda. Hunarmandchilikni estetik ob’ekt sifatida har tomonlama targ‘ib qilish, davlatlararo o‘zaro aloqa va madaniy munosabatlarni rivojlantirish, hunarmandchilikda bozor va turizmni jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli, moliyaviy, madaniy va intellektual maqomni belgilovchi yetakchi omilga aylantirishda xorijiy mamlakatlarning nufuzli tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim o‘rin tutadi.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili”da Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida uyushma tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda⁷⁵.

O‘zbekistonda hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi uchun amaliy yo‘l-yo‘riqlar shakllantirildi. Hunarmandlari koshinkorlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik, zardo‘zlik, gilamdo‘zlik, kashtado‘zlik, kulolchilik va kandakorlik yo‘nalishlarida muvaffaqiyatlarga erishdilar. Birgina zardo‘zlikda naqshlarning 50 dan ortiq turlari qayta tiklandi. Ipak va paxtadan gazlamalar, kashtachilik va gilamdo‘zlik xom ashyolari, kulolchilik buyumlari va koshinkorlik mahsulotlarini ranglash borasida o‘simliklardan tabiiy rang olish texnologiyalari yaratildi. Ushbu jarayonlar o‘z istiqboliga ega bo‘lib, respublika aholisiga munosib hayot tarzi, iqtisodiy barqarorlik hamda

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармонининг 1-илловасида келтирилган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича **Харакатлар стратегияси**”. <http://strategy.regulation.gov.uz>

hunarmandchilikning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlab bermoqda.

Respublikada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga doir ko'rgazma, ko'riktanlov, xalqaro simpozium va anjumanlar o'tkazilmoqda. Bu tadbirlarni o'tkazishdan maqsad hunarmandlar bilan nazariyotchilarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish, ularni rag'batlantirish, o'zaro tajriba almashish va hunarmandchilikda an'analarni saqlab qolish kabi masalalarni qamrab oladi. Jumladan, "Mustaqil yurt hunarmandlari", "O'zbekiston xalq amaliy san'ati – dunyo nigohida", "Mustaqillik nafasida kamol topgan hunarmandlar", "Navqiron O'zbekiston", "Qayta tiklangan hunar", "Vatanim taraqqiyotiga mening hissam", "Tashabbus", "Ipak va ziravorlar", "Do'ppi tikdim ipaklari tillodan", "Qo'li guldur o'zbek ayolin", "Hunarim-gavharim", "Yilning eng yaxshi hunarmandi", "Qo'g'irchog'im–ovunchog'im" an'anaviy qo'g'richoqbozlik san'ati bayrami, "Navro'z", "Mustaqillik" bayramlari munosabati bilan ko'rgazma va ko'rik-tanlovlarda hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki Amerika, Fransiya, Yaponiya, Malayziya, Xitoy, Rossiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Aljir kabi davlatlarda o'z xaridorlarini topmoqda⁷⁶.

O'tkazilayotgan ko'rgazmalarining diqqatga sazovor tomoni shundaki, o'zbek hunarmandlari xorijliklar bilan o'zaro tajriba almashish, milliy hunarmandchilik buyumlarini xorijga eksport qilish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy valyuta kirib kelishiga erishish, qo'lda tayyorlangan har bir buyumini san'at asari darajasiga ko'tarishga hissa qo'shmoqda.

Mustaqillik yillarida hunarmandchilik tushunchasi o'ziga xos ma'noni anglatib, oldingi davrlarga nisbatan keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda hunarmandchilik mehnat mahsuli yoki xizmat turlarini kichik hajmda yoki alohida buyurtmalar, qo'l mehnati hamda bilim, ko'nikma va mahoratdan ijodiy foydalangan holda hunarmand-ustaning shaxsan ishtiroki va xususiy vositalari asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlikdir. Hunarmandni biron-bir mahsulot va buyurtma, odatda, qo'l mehnati, shaxsiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlar vakili deb ham hisoblash mumkin. Bunday ta'rif hunarmandchilik sohasiga nisbatan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Bugun O'zbekistonda an'anaviy hunarmandchilikning o'ziga xos belgi va jihatlari quyidagi ko'rinishlarda:

- hunarmandchilik bozorini tabiiy resurslar, mehnat va kapital bilan to'ldiruvchi ishlab chiqaruvchi omili sifatida shakllantirish hamda rivojlantirish hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning real resurslariga aylantiradi, aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi;

⁷⁶ "Хунарманд" уюшмаси жорий архиви. 2016 йил.

- ishlab chiqarish tizimida hunarmandchilik infratuzilmasining roli ortib boradi;
- hunarmandchilik sub'ektlari mamlakat, hudud va xalqlarning iqtisodiy integratsiya jarayonlarida tengma-teng ishtirok etadi;

- hunarmandchilik ishlab chiqarish imkoniyatlarini xalqaro milliy hamda mahalliy ko'lamda kengaytirish hisobiga ta'lim, madaniy rivojlanish darajasi va o'z navbatida, malaka, mahorat hamda ijodiy salohiyat tarzida amalga oshirilmoqda.

An'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash, saqlash va rivojlantirish borasida erishilayotgan ijobiy natijalarni e'tirof etgan holda, kamchiliklarni ham aytib o'tish joiz. An'analarni tiklashda ko'pincha tijorat yo'lidan foydalanish, shuningdek, xalqaro loyihalarda mahalliy hududning o'ziga xos jihatlarini e'tibordan chetda qoldirish holatlari kuzatilmoqda. Bu hududlar hunarmandchiligining o'ziga xos an'alarining yo'qolib ketishiga olib kelmoqda. Masalan, uy sharoitida ishlab chiqarilayotgan hunarmandchilik mahsulotlari faqatgina olib sotarlar qo'liga tushishi, an'anaviy naqsh va belgilarning buzilishi yoki unutilishi, vohalarga xos bo'lgan lokallikdan chekinishlar milliy hunarmandchilikka salbiy munosabatlarni shakllantirmoqda. Mahalliy maktablarning o'ziga xosligi, san'at "sofligini" saqlab qolish bugun juda dolzarbdir. Qolaversa, so'nggi yillarda respublikada hunarmandlar faoliyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Avvalo bozor uchun hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarishda mahsulotning asl holati va keyin yangiliklar nisbati keskin farqlanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak (an'ana va yangilik muammosi). Yaxshi ishlangan amaliy san'at buyumlari muzey kolleksiyalari uchun qilinadi. Bu ham noto'g'ri. Bunda faqat xorijliklarga asosiy iste'molchi bo'lib qolmoqda (to'qimachilik va sopol buyumlar). Chunki xalq amaliy san'ati o'zida yangilikni, ijodkorning o'ziga xos uslubini emas balki, tarixiylik, milliylik va muayyan jamoaga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Qolaversa, uning samarasi dastlab xalq iste'moli talabini qondirishga qaratiladi. Ayni paytdagi jarayon hunarmandchilik mahsuloti kim tomonidan, qanday sifat va ko'rinishda tayyorlanishidan qat'i nazar asosiy maqsad uni bozorga sotishdir. Bugungi kunda hunarmandchilik mahsulotlarining turmushda foydalanilishi borgan sari ko'paymoqda.

Hunarmandlar o'zlari ishlab chiqarayotgan buyumlarni xorij bozorlariga olib chiqishga intilmoqdalar. Bu O'zbekistonning madaniyatini targ'ib va tashviq qilishdan dalolatdir. Mahalliy bozorda esa bunga e'tibor berilmayapti. Vaholanki, bozor hunarmandchilik rivoji jarayonini ko'rsatadigan eng yirik indikatoridir. Bugungi kunda hunarmandchilik mahsulotlaridan to'qimachilik (kashta, gilamlar, mato, zardo'zlik buyumlari) va kulolchilik buyumlari, shuningdek, an'anaviy usulda zamonaviy dizaynda qo'lda tayyorlangan sumka, hamyon, pardoz xalta, qo'lda kashtalangan yostiq jildi, milliy matodan tikilgan zamonaviy dizayndagi liboslar, shoyi sharflarga talab aholi orasida ham katta. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatida ma'lumotlar berishda xatoliklar uchraydi.

O'zbekistonning xalqaro maydonda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar olib borishi natijasida milliy hunarmandchilik sohasini dunyoga tanitish, zamonaviy sivilizatsiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lish, amaliy san'at namunalari doirasida jahon madaniyatiga o'z hissasini qo'shishga ham e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlat tomonidan hunarmandchilikni qayta tiklash, targ'ib qilish, rivojlantirish maqsadida turli tashkilot, uyushma, jamg'arma, ko'rgazma va festivallar o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Hunarmandchilik sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatish uchun usta-shogird an'analari qayta tiklandi.

